

**Davlat maktabgacha ta'lif tashkilotida
autsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish to'g'risida
144/01-1000-sonli SHARTNOMA**

Kattaqo'rg'on shaxar

(shartnoma imzolangan joy nomi)

2022 yil “_27_” _ Yanvar_

Keyingi o'rnlarda autsorser deb ataladigan "ABDULLAJON SARA CHORVALARI "Mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi korxona rahbari **M.Izzatov** bir tomondan, matnda keyingi o'rnlarda buyurtmachi deb ataladigan, Ustav asosida faoliyat yurituvchi **Kattaqo'rg'on shaxar maktabgacha ta'lif bo'limi** nomidan mudir **U.Djalolov** ikkinchi tomondan (keyingi o'rnlarda – tomonlar) quyidagilar haqida ushbu shartnomani tuzdilar.

I. Shartnomaning predmeti

1.1. Kattaqo'rg'on shaxar maktabgacha ta'lif bo'limi tasarrufidagi **_2,4,5,6,20_-**-sonli davlat maktabgacha ta'lif tashkilotida ro'yxatda turuvchi tarbiyalanuvchilarni amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq bir kunda 3 (uch) mahal (nonushta, tushlik, ikkinchi tushlik), haftada 5 (besh) kun ovqatlantirish mazkur shartnomaning predmeti hisoblanadi.

1.2. Tarbiyalanuvchilarni bir kunda 3 (uch) mahal ovqatlantirish bo'yicha 10 (o'n) kunlik taomnomasi **_2_-**-sonli davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti bilan kelishgan holda autsorser tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi.

1.3. Shartnoma qiymati **_2,4,5,6,20_-**-sonli davlat maktabgacha ta'lif tashkilotida shartnoma tuzilgan kunda ro'yxatda turgan tarbiyalanuvchilar soni va mahsulotlar narxlariga muvofiq **135 505 872** (*Bir yuz o'ttiz besh million besh yuz besh ming sakkiz yuz yetmish ikki*) so'mni tashkil etadi.

(shartnoma qiymati son va so'z bilan yoziladi)

Agarda mazkur davlat maktabgacha ta'lif tashkilotida tarbiyalanuvchilar soni ko'payganida mazkur shartnomaga ko'shimcha kelishuv tuziladi.

Tarbiyalanuv-chilar yoshlari	Tarbiyalanuv-chilar yoshlari	SanQvaM bo'yicha bir nafar bolani bir kunlik ovqatlantirish xarajati*	Shartnoma amal qilish muddati davomida ish kunlari soni	Jami	Ustama		Shartnomaning umumiy qiymati
					%	summa	
1	2	3	4	5=2*3*4	6	7	8=5+7
3-4yosh	204	10317	10	21 046 680	14	2 946 535	23 993 215
4-7yosh	801	12212	10	97 818 120	14	13 694 537	111 512 657
Jami	1005			118 864 800		16 641 072	135 505 872

*) Sanitariya qoidalari va me'yorlari bo'yicha bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish xarajati hisob-kitobi 1-ilovada keltiriladi.

Ushbu shartnoma tuzilgan kunda mazkur davlat maktabgacha ta'lif tashkilotida ro'yxatda turuvchi **3-4 yosh** tarbiyalanuvchilar soni - **204 nafar**, bir nafar tarbiyalanuvchini o'rtacha bir kunlik ovqatlantirish xarajati - **11761 (O'n bir ming etti yuz oltmish bir)** Ustama (QQS bilan) so'mni va **4-7 yosh** tarbiyalanuvchilar soni - **801 nafar**, bir nafar tarbiyalanuvchini o'rtacha bir kunlik ovqatlantirish xarajati - **13922 (O'n uch ming to'qqiz yuz yigirma ikki)** Ustama (QQS bilan) so'mni tashkil etadi.

(son va so'z bilan yoziladi)

Sanitariya qoidalari va me'yorlari bo'yicha bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish xarajati hisob-kitobi 1-ilovada, oyma-oy to'lov jadvali 2-ilovada keltiriladi.

To'lovlar davlat maktabgacha ta'lif tashkilotida har kunlik haqiqatda bo'lgan tarbiyalanuvchilar soniga qarab rasmiylashtirilgan hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

1.4. Amaldagi sanitariya qoidalari va me'yorlari asosida ovqat tayyorlash uchun ishlatalidigan mahsulotlarning tasdiqlangan narxlari o'zgarishi hamda davlat maktabgacha ta'lif tashkilotida tarbiyalanuvchilar sonining o'zgarishi hisobiga bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish

xarajati shartnomada keltirilganiga nisbatan 10% va undan yuqori ko'rsatkichga farq qilgan hollarda shartnomaga tomonlarning kelishuviga asosan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatları

2.1. Autsorserning huquqlari:

foydalilaniladigan kommunal xizmatlar qiymati belgilangan limit va davlat maktabgacha ta'lif tashkilotiga ajratilgan budget mablag'lari doirasida qoplanishini talab qilish;

ijara shartnomasi doirasida autsorserga vaqtincha foydalanishga beriladigan oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalar, idish-tovoqlari va mebelidan foydalanganlik uchun to'lovni nol stavka bo'yicha olish;

ko'rsatgan xizmatlar uchun to'lovni shartnomada belgilangan miqdor va muddatda talab qilish.

Autsorser qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

2.2. Autsorserning majburiyatları:

tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirish xizmatini davlat maktabgacha ta'lif tashkilot oshxonasining o'zida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq to'liq va sifatli tashkil etish;

taomnomalarni 10 kunlik namunaviy taomnomalar asosida hududiy davlat sanitariya epidemiologik osoyishtaligi xizmatiga bir nusxa taqdim qilgan holda ovqatlantirishni tashkil etish;

taomlarni ovqat tayyorlash texnologiyasiga to'liq amal qilgan holda tayyorlash;

taomlar tayyorlash texnologiyasi bo'yicha mutaxassislar (injener-texnolog, dietolog, oshpazlar) bilan ta'minlash;

taomnomalar, tayyor taomlarning vazni, narxi, tarkibidagi mahsulotlar miqdorlari, texnologik kartalarning to'g'ri va to'liq yuritilishini ta'minlash;

tanlov jarayonida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos sharoitlarni yaratish bo'yicha taklif qilgan investitsiya majburiyatlarini 3-ilovada belgilangan muddatlarda bajarish;

bajarilgan investitsiya majburiyatları bo'yicha tovar-moddiy boyliklar qaytarilmasligini inobatga olish.

Autsorserga qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

2.3. Buyurtmachining huquqlari:

autsorsing usulida ovqatlantirishni amalga oshirish uchun qo'yilgan talablar bajarilishini o'rganish;

tayyor taomlar sifatining taomnomaga muvofiqligini tekshirish;

tayyor taomlarning miqdori, mazasi, tarkibidagi mahsulotlarning sifati bo'yicha kamchiliklar aniqlangan holatda vakolatli organlarga bildirgi kiritish;

xarid qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar, ularda foydalilaniladigan texnologik sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mosligini, oshxonalar xodimlarining sanitariya-gigiena talablari va epidemiyaga qarshi tadbirlar bajarilishiga rioya etilishini tasdiqlangan rejaga asosan nazorat qilish;

tanlov jarayonida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos sharoitlarni yaratish bo'yicha autsorser tomonidan taklif qilingan investitsiya majburiyatlarini 3-ilovada belgilangan muddatlarda bajarilishini talab qilish, monitoring qilish;

autsorser tomonidan bajarilgan investitsiya majburiyatları bo'yicha tovar-moddiy boyliklar qaytarilmasligini ta'minlash.

Buyurtmachi qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

2.4. Buyurtmachining majburiyatları:

foydalilaniladigan communal xizmatlar xarajatlarini belgilangan normalar asosida davlat maktabgacha ta'lif tashkilotining xarajatlar smetasida mavjud budget mablag'lari va ota-onalar to'lovidan tushumlar hisobidan qoplash;

ijara shartnomasi doirasida autsorserga vaqtincha foydalanishga beriladigan oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalarini, idish-tovoqlari va mebellardan foydalanish uchun nol stavkada topshirish;

ko'rsatilgan xizmatlar uchun shartnomada belgilangan miqdor va muddatda to'lovni amalga oshirish;

autsorser tomonidan investitsiya majburiyatlari bajarilishi jarayonidagi tovar-moddiy boyliklar va ta'mirlash ishlari markazlashtirilgan buxgalteriya xizmati tomonidan o'z vaqtida kirim qilinishi va hisobga olinishini ta'minlash.

Buyurtmachiga qonunchilikda taqilanganmagan boshqa majburiyatlarham yuklanishi mumkin.

III. Ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish

3.1. Davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti har kuni ertalab soat 9:00 ga qadar shu kuni davlat maktabgacha ta'lif tashkilotiga kelgan, ovqatlantirilishi lozim bo'lgan tarbiyalanuvchilar soni bo'yicha belgilangan shaklga muvofiq autsorserga buyurtma beradi.

3.2. Autsorser davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti tomonidan taqdim etilgan tarbiyalanuvchilarning haqiqiy sonidan kelib chiqqan holda taomnoma tuzadi hamda ushbu taomnoma asosida ovqatlantirishni amalga oshiradi.

3.3. Autsorser har 10 (o'n) kunda buyurtmachiga kunlik taomnomalarni ilova qilgan holda hisob-faktura va ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasini taqdim etadi.

3.4. Buyurtmachi:

har oyning 15 sanasiga qadar joriy oyning rejaviy ish hajmiga (shartnomaga ilova qilingan to'lov jadvaliga) qarab 15 foiz miqdorda oldindan to'lovlarni amalga oshiradi;

autsorser tomonidan taqdim etilgan hisob-faktura va ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi asosida ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha mablag'larni joriy oyning 25 sanasiga qadar autsorserga o'tkazib beradi, joriy oyning qolgan kunlari uchun to'lovlardan keyingi oy uchun to'lanadigan mablag'larga qo'shib o'tkaziladi.

IV. Shartnomalar bo'yicha javobgarlik

4.1. Autsorser quyidagilarga javobgardir:

ovqatlarni faqat davlat maktabgacha ta'lif tashkiloti oshxonasining o'zida tayyorlashga (istisno tariqasida Komissiyaning qarori bilan markazlashgan holda tayyorlash va yetkazib berish);

ovqat tayyorlashda tegishli sertifikat va sifatni belgilovchi boshqa hujjalarga ega bo'lgan mahsulotlardan foydalanishga;

tayyorlangan ovqatlarning amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiqligiga;

tayyorlangan taomlarni texnologiya qoidalariiga rioya qilgan holda belgilangan taomlarni tayyor holdagi vazniga mutanosibligiga;

tayyorlangan ovqatlarning sifati buzilmasdan bolalarga berilishiga, bolalarga achigan, aynigan va boshqa ko'rinishda o'z sifatini yo'qotgan ovqatlarni bermaslikka;

taomnomada mahsulotlarning haqiqiy narxlarini hamda haqiqatda ovqatlangan bolalar sonini to'g'ri ko'rsatilishiga;

kunlik taomnomalarni maktabgacha ta'lif tashkiloti rahbariga belgilangan vaqtida yetkazilishiga;

o'ziga biriktirilgan va tegishli shartnomalar asosida vaqtincha foydalanishga berilgan buyurtmachining mulkini but saqlanishi va tejamkorlik bilan foydalanilishiga;

ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha tasdiqlovchi hujjalarni belgilangan shakllarga muvofiq hamda belgilangan muddatlarda buyurtmachiga taqdim etishga;

tanlov jarayonida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos sharoilarni yaratish bo'yicha taklif qilgan investitsiya majburiyatlarini 3-ilovada belgilangan muddatlarda bajarishga;

bajarilgan investitsiya majburiyatlari bo'yicha tovar-moddiy boyliklar qaytarilmasligini inobatga olishga.

4.2. Buyurtmachi quyidagilarga javobgardir:

ijara shartnomasi doirasida autsorserga vaqtincha foydalanishga beriladigan oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalar, idish-tovoqlari va mebellardan foydalanish uchun nol stavkada topshirishga;

ko'rsatilgan xizmatlar uchun mazkur shartnomada belgilangan miqdor va muddatlarda to'lovlarni amalga oshirish;

davlat maktabgacha ta'lif tashkilotiga haqiqatda kelgan tarbiyalanuvchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan shakl va muddatlarda autsorserga topshirilishini ta'minlash;

tanlov jarayonida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos sharoitlarni yaratish bo'yicha autsorser tomonidan taklif qilingan investitsiya majburiyatlarini 3- ilovada belgilangan muddatlarda bajarilishini talab qilishga, monitoring qilishga;

autsorser tomonidan bajarilgan investitsiya majburiyatlar bo'yicha tovar-moddiy boyliklar qaytarilmasligini ta'minlashga;

autsorser tomonidan investitsiya majburiyatlar bajarilishi jarayonidagi tovar-moddiy boyliklar va ta'mirlash ishlari markazlashtirilgan buxgalteriya xizmati tomonidan o'z vaqtida kirim qilinishi va hisobga olinishini ta'minlashga..

4.3. Autsorser tomonidan ovqatlantirish xizmatlarini belgilangan vaqtarda amalga oshirmsa yoki Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlardan amalga oshirilmasa o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorida penya to'laydi.

V. Fors-major holatlar

5.1. Fors-major holatlarda, basharti, majburiyatni ijro etmaslik shartnoma tuzilganidan keyin ro'y bergan bartaraf etib bo'lmas kuch ta'siridagi vaziyat oqibati bo'lsa, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaslik bo'yicha tomonlar javobgar bo'lmaydi.

VI. Boshqa shartlar

6.1. Shartnoma yuzasidan kelishmovchiliklar talabnomaga yuborish va muzokaralar o'tkazish yo'li bilan bartaraf qilinadi. Agarda tomonlar kelishuvga erishmasalar nizolar tegishli hududdagi iqtisodiy sudlar orqali hal etiladi.

6.2. Shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.3. Bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish amaldagi Sanitariya qoidalari va meyorlari bo'yicha amalga oshiriladi.

VII. Shartnomaning amal qilishi va bekor qilinishi

7.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amalda bo'ladi.

VIII. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

Autsorser

"ABDULLAJON SARA CHORVALARI"

MChJ

Kattago'rg'on tuman Melixo'ja MFY

Enamyaxshi q-q-

INN 307093379, OKED

«Mikrokredit» bank Kattago'rg'on sh f-1

Tel: (+99894) 285-06-00

Shxr: 20208000105172119001

MFO: 00315

Buyurtmachi

Kattaqo'rg'on shahar

Maktabgacha talim bo'limi

Kattaqo'rg'on shahar Semrug' ko'chasi №7

INN :207266687

Shxr:100022860184067091100251001

Kattaqo'rg'on shahri buyicha G'aznachilik bo'linmasi

Gazna x/v:23402000300100001010

Markaziy bank:Toshkent shahar

Bosh boshgarmasi XKKM

MFO: 00014

Korxona rahbari _____ M.Izzatov
M.O'.

MTB  _____ U.Djalolov
M.O'.



2022 yil “27” 01 dagi
144/01-1000-sonli shartnomaga
 1-ILOVA

**Sanitariya qoidalari va me'yorlari bo'yicha bir nafar tarbiyalanuvchini
 birkunlikovqatlantirishxarajati
 HISOB-KITOBI**

T/r	Mahsulotlar nomi	Narxi (so'm)	Miqdori (gramm)*	Summasi** (so'm)
1.	Non 1-navli (vitamin va minerallar bilan boyitilgan)		110	
2.	Bo'g'doy uni 1-navli		25	
3.	Mevali kisel tayyorlash uchun kraxmal		5	
4.	Yormalar, makaron mahsulotlari jumladan, mosh		45 3	
5.	Shakar		40	
6.	Qandolat mahsulotlari (murabbo, djem, gematogen va boshq.)		10	
7.	Saryog'		20	
8.	O'simlik yog'i		8	
9.	Tabiiy sut		300	
10.	Kefir, yogurt		200	
11.	Smetana		10	
12.	Tvorog		30	
13.	Pishloq		8	
14.	Go'sht (mol go'shti, qo'y go'shti, parranda go'shti, quyon go'shti)		100	
15.	Baliq (tozalangan va muzlatilgan)		25	
16.	Tuxum (dona)		0,5	
17.	Kartoshka		150	
18.	Sabzavotlar jumladan, tomatpasta		200 3	
19.	Mevalar, meva sharbatlari, vitaminli ichimliklar		150	
20.	Quruq mevalar		15	
21.	Choy		0,3	
22.	Kakao		2	
23.	Yodlangan tuz		3	
24.	Achitqilar (drojlar)		1	
	Jami	X		

*) O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga qo'yiladigan gigiena talablari (SanPiN) bo'yicha bir nafar bola uchun bir kunlik mahsulotlar me'yori yoziladi.

**) Tuman va shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari narxlaridan oshmagan holda taklif etilayotgan oziq-ovqat narxlari yoziladi.

Summasi – mahsulot miqdorini mahsulot narxiga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Korxona rahbari _____ M.Izzatov
 M.O'.

MTB mudiri _____ U.Djalolov
 M.O'.



**Autsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha shartnoma bo‘yicha to‘lovlarni
amalga oshirish grafigi**

Yil va oy	To‘lov miqdori (so‘m)
2022 yil yanvar	67 752 936
2022 yil fevral	67 752 936
2022 yil mart	0
2022 yil aprel	0
2022 yil may	0
2022 yil iyun	0
2022 yil iyul	0
2022 yil avgust	0
2022 yil sentabr	0
2022 yil oktabr	0
2022 yil noyabr	0
2022 yil dekabr	0
Jami	135 505 872

So‘mmasi 135 505 872 (Bir yuz o‘ttiz besh million besh yuz besh ming sakkiz yuz yetmish ikki)

Korxona rahbari _____ M.Izzatov
M.O‘.

MTB mudiri _____ U.Djalolov
M.O‘.



Autsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishda sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos sharoitlarni yaratish

Amalga oshiriladigan ishlar	Bajarish muddatlari	Sarflanadigan mablag‘ (so‘m)
Cho‘mich, kapkir, pichoq, kastryulkalar, taxtakach, bidon va boshqalar	1-2 oyda	50 000 000
Oshxona xodimlari uniformalari, tozalovchi va dezinfeksiyalovchi vositalar	1-2 oyda	50 000 000
Oqlash, kraskalash, eshik va derazalarni almashtirish, kafellarni yangilash (oshxona va yoramchi xonalar)	6 oydan 1 yilgacha	600 000 000
Elektr plita,Gaz plita, Parokonvektomat, Ovqat pishirish qozonlari(Kotel pishevorichny),Suv qaynatgich, Sovutgich(xolodilnik), Muzlatgich(morozilnik), Go‘sht maydalagich, Qovurish shkafi(Jarochniy shkaf), Elektrskskovoradasi,Moyka, Shkaf (non uchun), Ish stoli (proizvodstvennyy stol),Yuvish vannasi,Tarozi,Stilaj omborxonaga.	6 oydan 1 yilgacha	400 000 000
Jami		1 100 000 000

Izoh: Amalga oshiririladigan ishlar faqat talab etiladigan 2,4,5,6,20 davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun.

Korxona rahbari _____ M.Izzatov
M.O‘.

MTB mudiri _____ U.Djalolov
M.O‘.

